

Bugun yurtimizda tarixiy davr boshlandi. Bu esa jamiyatimizning barcha jabhasida, jumladan, siyosat, iqtisodiyot, ijtimoiy-gumanitar yo'nalishlari va albatta, ilm-fanda jadal rivojlanishni talab etyapti. Chunki ilm-fan hamda hayot o'rtasida shunday uzviy bog'liqlik mavjudki, agar u turmushimizga qancha ko'p xizmat qilsa, hayotimiz ham ilm-fanni bundanda ko'proq boyitadi. Prezidentimiz tomonidan bildirilgan ustuvor vazifalardan shuni chuqur his etish, anglash mumkinki, ilm-fan va u bilan muntazam shug'ullanayotganlar davlatimizning doimo e'tiboridadur.



2015-2018 yillarda katta ilmiy xodimlar-izlanuvchilar institutlarining asosiy ko'rsatkichlar (birlikda)

2019 yil 1 yanvar holatiga katta ilmiy xodimlar-izlanuvchilar soni viloyat bo'yicha 46 kishini tashkil qildi. 22 nafar katta ilmiy xodimlar-izlanuvchilar qabul qilinib 10 nafar katta ilmiy xodimlar-izlanuvchilar bitirdi.

Qobul qilingan katta ilmiy xodim-izlanuvchilar soni 2018 yilda 2015 yilga nisbatan 13 taga ko'paydi va 22 tani tashkil etdi. Katta ilmiy xodim-izlanuvchilar soni 2018 yilda 2015 yilga nisbatan 19 taga ko'paydi va 46 tani tashkil etdi.

| | 2015 yil | 2016 yil | 2017 yil | 2018 yil |
|---|----------|----------|----------|----------|
| Katta ilmiy xodim-izlanuvchilar institutlari (doktrantura) mavjud tashkilotlar soni | 2 | 2 | 2 | 2 |
| Qobul qilingan katta ilmiy xodim-izlanuvchilar | 9 | 15 | 26 | 22 |
| Ulardan, ayollar | 2 | 6 | 11 | 4 |
| katta ilmiy xodim-izlanuvchilar soni | 27 | 34 | 47 | 46 |
| Ulardan, ayollar | 10 | 11 | 18 | 16 |
| Bitirgan katta ilmiy xodim-izlanuvchilar | - | 5 | 10 | 10 |
| Ulardan, ayollar | - | 3 | 4 | 2 |
| Jami bitiruvchilar sonidan dissertatsiya himoya qilganlar | - | 1 | - | 3 |




2018 yilda fan sohalari bo'yicha tashkilotlar tomonidan o'z kuchi bilan bajarilgan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga xarajatlar, (mln. so'm)

| | Jami | Shu jumladan: | | | | | |
|------------------------|---------------|---------------|-----------------|------------------|---------------------------|-----------------|------------------|
| | | tabiiy fanlar | texnika fanlari | tibbiyot fanlari | qishloq xo'jaligi fanlari | ijtimoiy fanlar | gumanitar fanlar |
| Xorazm viloyati | 3367,2 | 968,1 | 871,0 | 538,9 | 178,5 | 150,7 | 660,0 |

2018 yilda fan sohalari bo'yicha tashkilotlar tomonidan o'z kuchi bilan bajarilgan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga xarajatlarning asosiy qismi tabiiy fanlar (28,8 foiz), texnika fanlar (25,9 foiz) va gumanitar fanlar (19,6 foiz) hissasiga to'g'ri keldi.

2018 yilda tashkilotlar tomonidan o'z kuchi bilan bajarilgan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga xarajatlarni fan sohalari bo'yicha ulushi, (foizda)



2015-2018 yillarda tashkilotlarning o'z kuchi bilan bajarilgan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalariga xarajatlarni moliyalashtirish manbalari, (mln. so'm)

| | 2015 yil | 2016 yil | 2017 yil | 2018 yil |
|---|---------------|---------------|---------------|---------------|
| O'z kuchi bilan bajarilgan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarga xarajatlar, mln.so'm | 1776,5 | 1198,5 | 3055,4 | 3367,2 |
| shu jumladan: | | | | |
| jami davlat byudjeti mablag'lari | 1434,5 | 1107,9 | 2036,9 | 2341,4 |
| byudjetdan tashqari fondlar mablag'lar | 342,0 | - | 413,0 | - |
| o'z mablag'lari | - | 90,6 | 171,0 | 457,1 |
| buyurtmachi mablag'lari | - | - | 434,5 | 568,7 |
| xorijiy manbalar mablag'lari | - | - | - | - |


So‘nggi uch yil mobaynida viloyatimizda ilmiy muassasalar tomonidan o‘z kuchi bilan bajarilgan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarini moliyalashtirish manbasi tarkibida jiddiy o‘zgarishlar ro‘y bermoqda. Xususan, 2015 yilda bajarilgan ilmiy tadqiqot ishlarini moliyalashtirishga asosan jami davlat byudjeti mablag‘lari (jami xarajatlarning 80,7%) jalb qilingan bo‘lsa, 2018 yilda ilmiy tadqiqot ishlarini moliyalashtirishda davlat byudjeti mablag‘laridan (69,5%), buyurtmachi mablag‘laridan (16,9%) va o‘z mablag‘laridan (13,6%) foydalanilmoqda.

Ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarni bajargan ilmiy xodimlar (2015-2018 yillar)

| | 2015 yil | 2016 yil | 2017 yil | 2018yil |
|--|------------|------------|-------------|-------------|
| Ilmiy xodimlar – jami (oliy ta’lim muassasalarining ilmiy-pedagogik xodimlarini qo‘shgan holda) | 794 | 885 | 1013 | 1059 |
| Shu jumladan ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarni bajargan tadqiqotchi mutaxassislar | 730 | 805 | 936 | 981 |
| shu jumladan: | | | | |
| ulardan ilmiy darajaga ega bo‘lganlar : | | | | |
| fan doktori | 25 | 27 | 33 | 29 |
| fan nomzodi | 191 | 189 | 206 | 198 |

Ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalari bilan band bo‘lgan tadqiqotchi mutaxassislar soni 2018 yilda 2015 yilga nisbatan 34,4 foizga oshdi va 981 nafarni tashkil etdi.

2018 yilda fan sohalari bo‘yicha ilmiy tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlanmalarni bajargan tadqiqotchi-mutaxassislar soni



2018 yilda tadqiqotchi-mutaxassislarning 24,4 foizi (239 nafar) ijtimoiy fanlar sohasida, 21,8 foizi (214 nafar) gumanitar fanlar sohasida, 21,7 foizi (213 nafar) tabiiy fanlar sohasida, qolgan 32,1 foizi (315 nafar) texnika, tibbiyot, qishloq xo‘jaligi fanlari sohasida ilmiy tadqiqot ishlari olib borishgan.



Ilm-fan iqtisodiyotning barcha tarmog‘i taraqqiyotida katta o‘rin tutadi. Hech shubhasiz, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning tashabbuslari O‘zbekistonda ilm-fan rivojini yangi bosqichga olib chiqadi.

Xorazm viloyati statistika boshqarmasi

Ijtimoiy soha statistikasi bo‘limi

Mas‘ul: K.Ataeva

Tel: 224-65-21